

BUGUNGI KUNNING DOLZARB MUAMMOSI.

“Adabiy portret” to‘garagining a‘zolari

Xidirboyeva Durdona Xasan qizi

Ipakchilik va tutchilik yonalishi 25-80 guruh,

Negova Munisa Nurali qizi

Zooinjeneriya yo‘nalishi 25-122-guruh

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi

Nurutdinova Malikaxon Sharabovna

[*malika122yun@gmail.com*](mailto:malika122yun@gmail.com)

“Dorivor o‘simliklar inson salomatligi garovidir”

Abu Ali ibn Sino o‘rta Osiyolik qomusiy olim,

tabib va faylasuf.

Annatatsiya: Ushbu maqolada azaldan olam-odam-tabiati bir butunlikni tashkil etganligi, biz bilgan va bilmagan olam bir-birini o‘rganishga va rivojlanishiga sezilarli darajada talablar qo‘yishi haqidagi fikrni o‘rtaga tashlaydi. O‘simlik dunyosidagi sirlarni kashf etishga ehtiyoj paydo qiladi. Bugungi kunda ko‘plab dori-darmonlarni ishlab chiqarishda ham dorivor o‘simliklar asosiy manba bo‘lib xizmat qilishini o‘quvchiga yana bir bora eslatadi. Hozirgi davrda insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan biri tabiatdagi biologik xilma-xillikni asrash, ekologik barqarorlikni ta‘minlash haqidagi fikrni tahlil etadi. Maqola shunga o‘xshagan bir qancha qiziqarli va kerakli ma‘lumotlar beradi. Ayniqsa dorivor o‘simliklarga qiziquvchilar uchun kerak bilim bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: O‘simlik dunyosi, dori-darmon, o‘simliklar, insoniyat, tabiat, ekologik barqarorlik, dorivor o‘simliklar.

АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ.

Аннотация: В статье представлена идея о том, что мир-человек-

природа всегда были единым целым, что известный и неизвестный нам мир предъявляют друг к другу существенные требования для изучения и освоения. Это порождает потребность в познании тайн растительного мира. Она ещё раз напоминает читателю, что лекарственные растения служат сегодня основным источником получения многих лекарственных средств. Анализируется мысль о том, что одной из важных задач, стоящих перед человечеством сегодня, является сохранение биоразнообразия в природе и обеспечение экологической стабильности. В статье представлен ряд интересных и необходимых сведений, которые могут быть полезны, особенно тем, кто интересуется лекарственными растениями.

Ключевые слова: Флора, медицина, растения, человечество, природа, экологическая устойчивость, лекарственные растения.

TODAY'S PRESSING PROBLEM.

Abstract: This article presents the idea that the world, humanity, and nature have always been a single whole, and that the known and unknown worlds each pose significant challenges for study and exploration. This creates a need to understand the secrets of the plant world. It once again reminds the reader that medicinal plants today serve as the primary source of many medicines. It analyzes the idea that one of the most important challenges facing humanity today is preserving biodiversity in nature and ensuring environmental stability. The article presents a number of interesting and relevant information that may be useful, especially for those interested in medicinal plants.

Key words: Flora, medicine, plants, humanity, nature, environmental sustainability, medicinal plants.

Insonlarning organizmidagi biologik xilma-xillik ya'ni tabiati o'simlik dunyosi bilan chambarchaslik rishtasini bog'laydi. Azaldan olam-odam-tabiati bir butunlikni tashkil etgan. Ushbu biz bilgan va bilmagan olam bir-birini o'rganishga va rivojlanishiga sezilarli darajada talablar qo'yadi. O'simlik dunyosidagi sirlarni kashf etishga ehtiyoj paydo qiladi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining

ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 80% hali ham tabiiy dori-darmonlarga tayanar ekan. Buyuk mutaffakir olim, tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarining 2-kitobida o'sha davrda o'simlik, hayvon va ma'danlardan olinadigan 800 dan ortiq dori-darmonlar ta'rifi, ularning davoli xususiyatlari va qo'llanish usullari bayon qilingan. Yana 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o'simliklar ko'rinishidadir. [2-600]

Dolzarblik: Bugungi kunda ko'plab dori-darmonlarni ishlab chiqarishda ham dorivor o'simliklar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrda insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan biri tabiatdagi biologik xilma-xillikni asrash, ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. Inson salomatligiga tahdid solayotgan allergik, yuqumli va epidemiologik kasalliklarning oldini olish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, suv va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish zarurati ham bor. Kasallik va zararkunandalarga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvon zotlarini yaratish lozim. Ushbu vazifalarni bajarish bugungi kunda yoshlar zimmasiga yuklanadi. Mazkur muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda tibbiyot, tabiatni muhofaza qilish kabi bilimlarga asoslanmoq kerak. [3-63]

Xulosa: Hamda qo'lga kiritilgan yutuqlarni o'rganish va amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir shaxs tabiat va uning tarkibiy qismlari, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan oqilona munosabatda bo'lishi, tabiiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, tirik organizmlarning Yer yuzida tarqalishi, rivojlanishi, ularning yashash muhitiga moslanishi, muhit va boshqa tirik organizmlar bilan o'zaro munosabatlari, sayyoramizdagi hayotga tahdid soluvchi omillar va ularni bartaraf etish tadbirlariga doir biologik qonuniyat va nazariyalarni o'rganishi lozim. Mazkur bilimlar ekologik madaniyatni shakllanishga asos bo'lishi mumkin. Tabiiy moddalar uzoq vaqtdan beri dori vositalarining manbai bo'lib xizmat qilgan. Shunga ko'ra, dorivor o'simliklarga asoslangan dori vositalarini kashf etish hali ham o'rganilmagan muhim soha bo'lib qolmoqda.

Biologik xilma-xillikning bunday qisqarishi asosan dunyo aholisining ko'payishi, tez va ba'zan rejalashtirilmagan sanoatlashtirish, o'rmon va daraxtlarning tasodifiy kesilishi, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, ifloslanish va nihoyat, global iqlim o'zgarishi natijasidir. Shuning uchun o'simliklarning biologik xilma-xilligini saqlab qolish kelajak uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali Ibn Sino. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. 3-4 betlar.
2. Abu Ali ibn Sinoning „Tib qonunlari“ asarining 2-tom: tabiiy giyohli dorilar haqida hikoyalar.
3. Tojiboyev Sh., O'simliklar geografiyasi: Ilmiy nashr/ "Namangan" nashriyoti 2015y., 160b.
4. 2. S.S.Saxobiddinov — o'simliklar sistematikasi "O'qituvchi", Toshkent. 1966, 54 b.
5. A.A.Taxtadjan— Sistema i filogeniya svetkovix rasteniy. "Nauka" M.—L. 1966, 611 s.